YANGI O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIY SIYOSATI VA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Mamatqobilov Tursunmurat Daniyorovich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, siyosiy fanlar nomzodi
tursunmurodmamadqobilov@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning zamirida tinch va farovon yashash printsiplari turar ekan, bunda ijtimoiy davlat tushunchasidan kelib chiqib keng miqyosda olib borilayotgan islohotlar mohiyat-mazmuni, Konstitutsiyaviy asos nuqtai nazaridan Ijtimoiy davlat qamrovi va Skandinaviya, Xitoy hamda Turkiya davlatlarinig ijtimoiy himoya siyosati qiyosiy tahlil etildi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, tinchlik, farovonlik, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy davlat, ijtimoiy himoya, Konstitutsiyaviy asos, Skandinaviya, Xitoy va Turkiya davlatlarinig ijtimoiy siyosati, qiyosiy tahlil.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность проводимых в больших масштабах реформ, основанных на концепции государства всеобщего благосостояния, сфера действия государства всеобщего благосостояния с точки зрения конституционного устройства, а также политика социальной защиты скандинавских, китайских и турецких государств, поскольку принципы мирной и процветающей жизни лежат в основе социальной политики, реализуемой в Новом Узбекистане.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, мир, процветание, социальная политика, государство всеобщего благосостояния, социальная защита, конституционное устройство, социальная политика скандинавских, китайских и турецких государств, сравнительный анализ.

Abstract: This article examines the social policy being implemented in "New Uzbekistan," which is grounded in principles of peaceful and prosperous living. It analyzes the essence and content of large-scale reforms based on the concept of a "social state," the scope of the social state from a constitutional perspective, and the social protection policies of Scandinavian countries, China, and Turkey.

Keywords: New Uzbekistan, peace, prosperity, social policy, social state, social protection, constitutional basis, social policies of Scandinavian countries, China, and Turkey, comparative analysis.

DOI: 10.5281/zenodo.24240437

Xorijiy tajriba tayyor model sifatida emas, balki O‘zbekiston sharoitiga mos yoki mos bo‘lmagan elementlarni ajratib beruvchi qiyosiy tahlil obyekti sifatida o‘rganildi. Bunda Skandinaviya mamlakatlari va Xitoy hamda Turkiya davlatlarining ijtimoiy siyosatga oid islohotlarining o‘ziga xosligi nimalarda namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining 36-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega” deb belgilab qo‘yilgan [1:25]. Shu bois, Konstitutsiyaviy asos nuqtai nazaridan ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda fuqarolarning davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etish huquqi alohida ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyaning tegishli normalarida fuqarolar jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda vakillari orqali ishtirok etishi, bunday ishtirok o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar, davlat organlarini demokratik shakllantirish va davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati orqali amalga oshirilishi belgilangan.

Yangi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-, 14 -, 65 -, 69 -, 115- va 127-moddalarida: “O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida inson farovonligini, xilma-xil mulk shakllarini, fuqarolik jamiyati institutlarini, iqtisodiy, ijtimoiy, soliq va byudjet siyosatini, ilm-fan, madaniyat, ta’lim, sog‘liqni saqlashni, o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatlarini takomillashtirishni maqsad qilgan”. [2: 5, 9, 39, 41, 89, 102, 103]. Vaholanki, ijtimoiy siyosatning mahalla va fuqarolik jamiyati bilan bog‘lanishi ixtiyoriy tashabbus emas, balki konstitutsiyaviy siyosiy ishtirok mexanizmining amaliy ko‘rinishidir. Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy siyosatni amalga oshirish mexanizmlarini tahlil qilishda eng avvalo, uni birgina vazirlik yoki agentlikning tor ma’muriy vazifasi sifatida emas, balki davlat boshqaruvi, mahalla, fuqarolik jamiyati institutlari, ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va raqamli axborot tizimlari o‘rtasida shakllanadigan ko‘p darajali siyosiy-institutsional jarayon sifatida ko‘rish zarur.

G‘arb jamiyatshunos olimlaridan D.A. Eastonning “Systems Analysis of Political Life” asarida: “Davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi normativ-huquqiy o‘lcham, ya’ni Konstitutsiya, qonunlar va strategik hujjatlarda belgilangan vakolatlar orqali amalga oshadi”,- deya qayd etiladi [3:17]. Shuningdek, R.A.Rhodesning W.Understanding Governance: Policy Networks, Governance, Reflexivity and Accountability asarida: “Institutsional-o‘zaro ta’sir o‘lchami, ya’ni davlat organlari, NNT, jamoatchilik kengashlari, ommaviy axborot vositalari va

ijtimoiy xizmat markazlari o‘rtasidagi amaliy koordinatsiya ijtimoiy himoyaning asosida turishi belgilanadi” [4:25].

Bizningcha, Davlat boshqaruvidan tortib, fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi normativ-huquqiy o‘lcham, ya’ni Konstitutsiya, qonunlar va strategik hujjatlarda belgilangan vakolatlar, davlat organlari, mahallalar, NNTlar, jamoatchilik kengashlari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy xizmat markazlari o‘rtasidagi amaliy hamkorlik ijtimoiy himoyani kuchaytiradi. Bunda yordam oluvchining muammosi aniqlanishidan boshlab xizmat, monitoring va qayta baholashgacha bo‘lgan siklning ishlash darajasi to‘g‘riligini belgilaydi. Natijada, shu yondashuv ijtimoiy siyosatni “yuqoridan pastga” yuboriladigan buyruqlar yig‘indisi emas, balki davlat va jamiyat o‘rtasidagi siyosiy ishonchni ishlab chiqaruvchi mexanizm sifatida talqin qilish imkonini beradi

Masalan, Skandinaviya tajribasi universal ijtimoiy kafolatlar, yuqori sifatli xizmatlar, gender tenglik, faol bandlik siyosati, mahalliy xizmatlarning kuchi va fuqarolarning davlatga ishonchi bilan ajralib turadi. Bu modelning afzalligi xizmat sifati va hisobdorlikda, cheklovi esa yuqori soliq intizomi, fiskal imkoniyat va tarixiy institutsional madaniyat talabida ko‘rsatilgan. Skandinaviya mamlakatlariga asosan Shvetsiya, Norvegiya va Daniya davlatlari kiradi. O‘zbekiston uchun maqbul yo‘l Skandinaviyadan xizmatlar sifati va universal kafolatlar, Xitoydan hududiy risk monitoringi va natijadorlik, Turkiyadan oila-mahalla bilan ishlash va bandlikka bog‘langan yordam elementlarini milliy institutsional sharoitga moslashtirib integratsiya qilishdan iborat ekani asoslangan. Chunki ijtimoiy siyosatning yakuniy natijasi faqat qabul qilingan qarorlar soni, ajratilgan mablag‘ yoki imtiyozlar hajmi bilan emas, balki ehtiyojmand shaxsning real hayotiy muammosi qanchalik aniqlangani, unga ko‘rsatilgan xizmat qanchalik manzilli bo‘lgani, mahalla darajasidagi axborot davlat reyestrlari bilan qanchalik moslashgani va jamoatchilik nazorati orqali korrupsiyaviy xavflar qanchalik kamaytirilgani bilan baholanadi.

1. Shvetsiy poytaxti – Stokgolm bo‘lib, skandinaviya mintaqasidagi eng yirik mamlakat hisoblanadi. 2. Norvegiya poytaxti – Oslo, F’ordlari va tabiiy boyliklari bilan mashhur. 3. Daniya poytaxti – Kopengagen bo‘lib janubiy qismda joylashgan. Ayrim holatlarda geografik va madaniy jihatdan bu ro‘yxatga Finlandiya va Islandiya ham qo‘shiladi (ular bilan birga Shimoliy Evropa yoki Skandinaviya deb ataladi). Shvetsiya, Norvegiya, Daniya davlatlarining ijtimoiy siyosati har bir fuqaroga yuqori darajadagi hayot sifati va ijtimoiy kafolatlarni taqdim etuvchi “Farovonlik davlati” modeliga asoslanadi. Bu mamlakatlar bilan O‘zbekistonning aloqalari 1998-yil 23-noyabrdagi Vazirlar Mahkamasining 484-son qaroriga binoan huquqiy asosga ega bo‘lgan. 1999-yildan O‘zbekistondan Skandinaviya mamlakatlariga ekspert guruhi yuborila boshlagan (Vazirlar Mahkamasining 2021-

yil 22-fevraldagi 87-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan) [5 Lex.uz/en/docs/82949].

O‘zbekiston Respublikasining Skandinaviya mamlakatlari (Daniya, Shvetsiya, Norvegiya, shuningdek, kengroq Shimoliy Yevropa mintaqasiga kiruvchi Finlyandiya) bilan rasmiy diplomatik aloqalari **1992-yilning birinchi yarmida** o‘rnatilgan.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng ushbu davlatlar bilan quyidagi sanalarda rasmiy munosabatlarni yo‘lga qo‘ygan:

Diplomatik aloqalar Daniya Qirolligi bilan 1992-yil 25-yanvar (Notalar almashinuvi orqali)da, Finlyandiya Respublikasi bilan 1992-yil 26-fevral (Xelsinki protokoli orqali)da, Shvetsiya Qirolligi bilan 1992-yil 8-aprel (Toshkent shahridagi kelishuv orqali)da, Norvegiya Qirolligi: 1992-yil 10-iyun (Notalar almashinuvi orqali)da o‘rnatilgan.

Bugungi kunda O‘zbekistonning Skandinaviya mintaqasidagi asosiy elchixonasi **Stokgolm (Shvetsiya)** shahrida faoliyat yuritmoqda va u orqali Norvegiya hamda Daniya kabi qo‘shni davlatlar bilan ham diplomatik aloqalar muvofiqlashtiriladi. Keyingi yillarda tomonlar o‘rtasida “Markaziy Osiyo – Shimoliy kengash” formatidagi interaktiv va iqtisodiy hamkorlik aloqalari rivojlanib bormoqda. [6].

Xitoy va Turkiya tajribasi esa O‘zbekiston uchun ikki turdagi qiyosiy tahlil imkonini beradi. Jumladan, Xitoy yirik aholiga ega, hududiy tafovutlari keskin va davlat boshqaruvi markazlashgan mamlakat sifatida kambag‘allikni qisqartirishda maqsadli safarbarlik, ma’lumotga asoslangan manzillilik va infratuzilma bilan bandlikni bog‘lash tajribasini namoyish etadi. Turkiya esa o‘rta daromadli, bozor iqtisodiyotiga asoslangan va oilaga yo‘naltirilgan ijtimoiy yordam an’anasiga ega davlat sifatida shartli pul transferlari, mahalliy ijtimoiy yordam fondlari va integratsiyalashgan elektron tizim modelini ko‘rsatadi. Ushbu qismda har ikki tajriba O‘zbekistonga ko‘chirib o‘tkaziladigan tayyor model sifatida emas, balki manzillilik, bandlik va inson kapitalini rivojlantirishning institutsional yechimlarini qiyosiy o‘rganish obyekti sifatida tahlil qilinadi.

Xitoy ijtimoiy siyosatining asosiy siyosiy-institutsional mantig‘i iqtisodiy o‘sish bilan ijtimoiy himoyani bir-biriga bog‘lashda namoyon bo‘ladi. Mamlakat 1978-yildan boshlangan islohotlar davrida 800 milliondan ortiq aholini qashshoqlikdan chiqarib, jahon tarixidagi eng yirik kambag‘allikni qisqartirish jarayonini amalga oshirdi. Bu natija faqat iqtisodiy o‘sish hisobiga emas, balki ta’lim, qishloq infratuzilmasi, sog‘liqni saqlash va maqsadli kambag‘allik dasturlarining uyg‘unligi orqali qo‘lga kiritildi.

Bu O‘zbekiston sharoitida mahalla va tuman kesimida ijtimoiy siyosatni “xizmatga yaqinlik” mezoni bilan baholashni talab qiladi. Masalan, ehtiyojmand oilaga nafaqa tayinlangani ijobiy, lekin oilaning farzandi maktabga qatnay olmasa, kasbga o‘qish markazi uzoqda bo‘lsa, ayolning ishga chiqishi uchun bolalar bog‘chasi yetishmasa yoki nogironligi bo‘lgan shaxs uchun transport va reabilitatsiya xizmati risoladagidek bo‘lmasa, ijtimoiy siyosat natijasi cheklangan bo‘ladi.

Jahon bankining Xitoyda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha tahlillariga ko‘ra, Xitoy manzilli kambag‘allikni qisqartirish siyosatining markaziy elementi 2013-yildan keyin joriy etilgan “aniq manzilli kambag‘allikni tugatish” (jingzhun fupin) yondashuvidir. Bunda har bir kambag‘alning uy xo‘jaligi alohida ro‘yxatga olinib, kambag‘allik sababi – mehnatga layoqati yetishmasligi, kasallik, ta’lim darajasi, infratuzilma tanqisligi yoki hududiy izolyatsiya – bo‘yicha tasniflandi va har bir toifaga mos chora belgilandi. Yondashuvning o‘ziga xosligi yordamni umumiy nafaqa sifatida emas, kambag‘allik ildiziga qaratilgan maqsadli aralashuv sifatida tashkil etishida ko‘rindi.

Xalqaro tadqiqotlarda qayd etilishicha, Xitoyning ijtimoiy yordam tizimida “Dibao” (eng kam turmush darajasi kafolati) dasturi alohida o‘rin tutadi. Dibao oila jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad mahalliy darajada belgilangan minimal turmush chizig‘idan past bo‘lganda farqni qoplovchi manzilli pul yordamini nazarda tutadi. Dastur shahar va qishloq aholisi uchun alohida chiziqlar asosida ishlaydi, yordam miqdori esa mintaqaning iqtisodiy darajasi va iste’mol xarajatlariga bog‘lab belgilanadi. Bu tajriba ijtimoiy yordamni budjet imkoniyatigagina emas, real minimal ehtiyojga bog‘lash mumkinligini ko‘rsatadi.

“Dibao” tajribasi O‘zbekiston uchun ijtimoiy nafaqa va moddiy yordamni minimal hayotiy kafolatlar bilan bog‘lash nuqtayi nazaridan muhim. Kam ta’minlangan oila uchun yordam miqdori faqat budjet imkoniyati asosida emas, balki minimal iste’mol, oiladagi bolalar soni, nogironlik, ishga layoqat, hududiy narxlar va xizmatlarga kirish imkoniyati bilan bog‘lanishi kerak. Bunday yondashuv ijtimoiy yordamni siyosiy-institutsional adolat mezoniga aylantiradi.

Xitoy tajribasining yana bir muhim jihati kambag‘allikni qisqartirishni inson kapitali va xizmatlar bilan bog‘lashidir. Majburiy ta’limni kengaytirish, qishloq maktablari va tibbiyot shoxobchalarini rivojlantirish, kasb-hunar ta’limi hamda ko‘chirib joylashtirish dasturlari orqali davlat yordamni nafaqat joriy iste’molni qoplash, balki oilaning uzoq muddatli imkoniyatlarini kengaytirish vositasiga aylantirishga harakat qildi. Shu jihatdan Xitoy modeli ijtimoiy himoyani “kompensatsiya” emas, “imkoniyat yaratish” mantig‘ida quradi. Xorijiy ijtimoiy siyosat modellarini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishda birinchi mezon bu -

metodologik talab - konstitutsiyaviy moslikdir. Har qanday model O‘zbekistonning ijtimoiy davlat, huquqiy davlat, inson qadr-qimmati, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplariga zid kelmasligi kerak. Shunga ko‘ra xorijiy tajriba milliy huquqiy maydonga mos keladigan elementlar orqali qabul qilinadi.

Ikkinchi mezon - fiskal imkoniyatdir. Skandinaviya mamlakatlaridagi keng universal kafolatlar yuqori soliq yuki, kuchli budjet intizomi va rivojlangan xizmatlar infratuzilmasiga tayanadi. O‘zbekiston uchun bunday modelning ayrim elementlari foydali bo‘lsa-da, uni to‘liq ko‘chirish budjet barqarorligi va institutsional imkoniyatlar nuqtayi nazaridan ehtiyotkor baholanishi lozim.

Uchinchi mezon – institutsional salohiyatdir. Xorijiy model samaradorligi faqat qonun yoki dastur matni bilan emas, uni bajaruvchi idoralar, mahalliy boshqaruv, ijtimoiy xodimlar, raqamli tizimlar va jamoatchilik nazorati sifati bilan belgilanadi. Agar institutlar tayyor bo‘lmasa, yaxshi model ham formal hujjatga aylanib qolishi mumkin.

To‘rtinchi mezon - hududiy va madaniy muvofiqlikdir. O‘zbekiston jamiyatida mahalla, oila, qarindoshlik aloqalari, mahalliy birdamlik va norasmiy ijtimoiy yordam an’analari muhim rol o‘ynaydi. Xorijiy tajriba ushbu ijtimoiy resurslarni inkor etmasligi, aksincha ularni huquqiy, professional va raqamli mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirishi kerak.

Beshinchi mezon - natijadorlikdir. Har qanday moslashtirilayotgan tajriba qamrov soni, xizmat sifati, ehtiyojmand guruhlar holatidagi o‘zgarish, kambag‘allikdan chiqish, bandlikka kirishish va davlatga ishonch ko‘rsatkichlari orqali baholanishi zarur. Natijadorlik bo‘lmasa, modelning tashqi shakli saqlangan bo‘lsa ham, uning ijtimoiy mazmuni zaiflashadi.

Skandinaviya tajribasidan O‘zbekiston uchun eng muhim jihat - ijtimoiy ishonch, xizmat sifati va ochiq hisobdorlik madaniyatidir. Bu tajriba davlat va fuqaro o‘rtasidagi ijtimoiy shartnoma yuqori darajada ishlaganda, fuqarolar soliqlar va ijtimoiy xizmatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘ra olganda samarali bo‘lishini ko‘rsatadi.

Xitoy tajribasidan hududiy maqsadli dasturlar, kambag‘allikni aniq o‘lchash, infratuzilma va bandlikni birgalikda rivojlantirish elementlarini o‘rganish mumkin. Biroq bu tajriba O‘zbekiston sharoitida huquqiy kafolatlar, fuqarolik jamiyati ishtiroki, ochiq ma’lumotlar va jamoatchilik nazorati bilan uyg‘unlashtirilgandagina maqbul bo‘ladi.

Xitoy tajribasini tahlil qilishda uni faqat ijobiy natijalar to‘plami sifatida ko‘rsatish ilmiy jihatdan biryoqlama bo‘ladi. **Uning birinchi cheklovi** – kuchli markazlashgan ma’muriy safarbarlikka tayanishidir. Bunday model qisqa muddatda yuqori ijro intizomini ta’minlashi mumkin, biroq uni boshqa mamlakatlarga to‘liq

ko‘chirish qiyin. O‘zbekiston sharoitida mahalla, fuqarolik jamiyati, ochiq parlament nazorati va jamoatchilik ishtiroki bilan muvozanat zarur. Xitoy tajribasi hududiy-maqsadli kambag‘allikni qisqartirish, risklarni xaritalash, kuchli monitoring va safarbarlik mexanizmlari bilan tahlil qilingan. Turkiya tajribasi esa oila, mahalliy hamjamiyat, ijtimoiy yordam va ijtimoiy xizmatlarni davlat dasturlari bilan bog‘lash, bandlik va ijtimoiy ko‘makni uyg‘unlashtirish jihatidan o‘rganish ziyon qilmaydi.

Bu O‘zbekiston uchun juda muhim xulosa beradi: kambag‘allikni qisqartirishda “rasmiy ro‘yxatdan chiqarish” yakuniy maqsad bo‘lmasligi kerak. Asosiy maqsad oilani zaiflikdan barqarorlikka olib chiqishdir. Agar oila ro‘yxatdan chiqarilganidan keyin kasallik, ishsizlik, narxlar o‘sishi yoki uy-joy muammosi sabab qayta kambag‘allikka tushsa, siyosat natijasi mustahkam bo‘lmaydi.

Ikkinchi cheklov - hududlar o‘rtasidagi tafovutdir. Xitoyda qirg‘oqbo‘yi sanoatlashgan hududlar bilan ichki va g‘arbiy qishloq hududlari o‘rtasidagi farqlar uzoq vaqt saqlanib qoldi. Bu O‘zbekiston uchun ham dolzarb: Toshkent shahri, viloyat markazlari va chekka tumanlar o‘rtasida ish o‘rni, ta’lim, tibbiyot, transport va raqamli xizmatlar bo‘yicha tafovut kamaymasa, ijtimoiy siyosatning adolat mezoni zaiflashadi.

Turkiya ijtimoiy siyosati bozor iqtisodiyoti, oilaviy birdamlik an’anasi va keyingi yigirma yilda kengaygan ijtimoiy yordam tizimi uyg‘unligida shakllangan. Turkiya modelining o‘ziga xosligi ijtimoiy yordamni markaziy vazirlik siyosati bilan mahalliy ijtimoiy yordam fondlari, oilaga yo‘naltirilgan transferlar va keng qamrovli sog‘liqni saqlash sug‘urtasini birlashtirishida ko‘rinadi. Bu jihat O‘zbekiston uchun markaziy standart bilan mahalliy yaqinlikni qanday muvozanatlash mumkinligini ko‘rsatadi.

Turkiya tajribasining eng ko‘p o‘rganilgan elementlaridan biri shartli pul transferlari (Şartı Nakit Transferi) dasturidir. Bunda kam ta’minlangan oilaga beriladigan yordam bolaning maktabga muntazam qatnashi, qizlar ta’limining davom etishi, chaqaloq va ona salomatligini saqlash hamda emlash kabi shartlar bilan bog‘lanadi. Yordam ko‘pincha oilada bola ta’limi va salomatligi uchun bevosita mas’ul bo‘lgan onaga to‘lanadi. Bu mexanizm yordamni joriy iste’molni qoplash bilan birga inson kapitaliga investitsiyaga aylantiradi.

Turkiyada ijtimoiy yordamning institutsional o‘zagini har bir tuman va shaharda tashkil etilgan ijtimoiy yordamlashish va birdamlik fondlari tashkil etadi. Ushbu fondlar mahalliy darajada ehtiyojni baholaydi, oilalar bilan ishlaydi va markaziy budjet hamda integratsiyalashgan ma’lumotlar tizimi bilan bog‘langan holda yordamni taqsimlaydi. Bunday model markaziy siyosatni mahalliy ijroga ulashda muhim bo‘g‘in vazifasini bajaradi. Turkiya ijtimoiy siyosatining yana bir

muhim yo‘nalishi sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sug‘urtaning kengayishidir. Umumiy sog‘liq sug‘urtasi tizimi orqali aholining katta qismi tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi, eng kam ta’minlangan guruhlar uchun sug‘urta badallari davlat tomonidan qoplandi. Bu tajriba ijtimoiy yordam va ijtimoiy sug‘urtani bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida qurish mumkinligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, Turkiya tajribasi bandlik va inson kapitali sohasida muammolarni ham ochib beradi. Mehnat bozorida yoshlar ishsizligi, ayollar bandligining nisbatan pastligi, norasmiy bandlik va ish o‘rinlari sifati bilan bog‘liq masalalar ijtimoiy yordamning kambag‘allikni uzoq muddatda kamaytirishdagi ta’sirini cheklaydi. Bandlik xizmatlari va kasbga o‘qitish dasturlari mehnat bozori ehtiyojiga to‘liq bog‘lanmaganda, yordam passiv qo‘llab-quvvatlashga aylanish xavfini saqlaydi. Turkiya tajribasidan oilaga yaqin yordam, mahalliy ijtimoiy yordam fondlari, shartli transferlar va fuqaroga nisbatan manzilli yondashuvning ayrim elementlari foydali bo‘lishi mumkin.

Bu O‘zbekiston uchun mahalla instituti bilan qiyoslashda muhim. O‘zbekiston sharoitida esa bu elementlar mahalla va “Inson” markazlari tizimi bilan uyg‘unlashtirilishi mumkin [7: 8]. Demak, mahalla ehtiyoj eng yaqin va yuqori darajada ko‘rilishi, e’tiborga olinishi zarur. Chunki mahallad bir butun davlat va jamiyatning asosini tashkil etuvchi oilalar istiqomat qilishadi. Ammo professional baholash va raqamli nazorat bo‘lmasa, subyektivlik xavfi paydo bo‘ladi. Turkiya tajribasi mahalliy yordam tizimini markaziy vazirlik, elektron xizmatlar va aniq dasturlar bilan bog‘lash zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda mahalla ehtiyojni aniqlashi, “Inson” markazi professional xizmat rejasini tuzishi, markaziy tizim esa mezon, monitoring va moliyaviy nazoratni ta’minlashi lozim.

Ijtimoiy siyosatning mahalla va fuqarolik jamiyati bilan bog‘lanishi ixtiyoriy tashabbus emas, balki konstitutsiyaviy siyosiy ishtirok mexanizmining amaliy ko‘rinishidir. Strategik-huquqiy jihatdan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ijtimoiy davlat modeliga o‘tishning dastlabki dasturiy asoslaridan biri bo‘ldi. Mazkur hujjatda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalq farovonligini oshirish, inson huquqlari va manfaatlarini ta’minlash, faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish vazifalari belgilangan.

O‘zbekiston uchun bu xulosa juda muhim: kambag‘allikni kamaytirishda nafaqat ish o‘rni soni, balki ishning sifati, rasmiyligi, barqarorligi, ayollar va yoshlar uchun mosligi ham ahamiyatli. Mahalladagi kambag‘al oilani “ishga joylashtirish” deganda vaqtinchalik, past haq to‘lanadigan yoki norasmiy ish emas, balki barqaror daromad, malaka oshirish, mehnat huquqi va ijtimoiy sug‘urta bilan bog‘langan ish tushunilishi kerak.

Ayniqsa, ijtimoiy himoya bo‘yicha ehtiyojmand aholini ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to‘liq qamrab olish, ijtimoiy himoya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, ijtimoiy sug‘urta tizimini yaratish va “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ni boshqa daftarlarga integratsiya qilish vazifalari strategik ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy fondlar va yordam dasturlarining yana bir afzalligi – tezkorlikdir. Oila favqulodda vaziyatga tushganda uzoq byurokratik jarayonni kutmasdan yordam olish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak. Ammo tezkorlik shaffoflik bilan muvozanatlanmasa, favoritizm, mahalliy tanish-bilishchilik, siyosiy bosim yoki norasmiy kelishuvlar xavfi yuzaga keladi. Binobarin, ijtimoiy yordamda tezkorlik, shaffof mezon, elektron iz, audit va jamoatchilik nazorati birga bo‘lishi zarur.

Demak, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Selektiv-integratsiyaviy moslashtirish yondashuvi aynan shu mezonlar asosida shakllanadi. U xorijiy tajribani to‘liq ko‘chirishni ham, uni butunlay rad etishni ham nazarda tutmaydi. Aksincha, har bir modeldan O‘zbekistonning huquqiy, moliyaviy, demografik, madaniy va institutsional sharoitiga mos keladigan elementlarni tanlab olishni taklif etadi.

2023-yilgi Konstitutsiyadan keyingi eng muhim strategik hujjatlardan biri “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidir. Unda ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini aholi talablariga hamda xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan darajada tashkil qilish asosiy g‘oyalardan biri sifatida belgilangan [8:14-15].

Mazkur yondashuv strategik natijalar uchun muhim nazariy, ilmiy-amaliy ko‘prik vazifasini bajaradi. Chunki 2030-yilgacha O‘zbekiston ijtimoiy davlat modelini takomillashtirishda xalqaro tajriba yordamchi metodologik resurs bo‘lib xizmat qiladi, lekin yakuniy model milliy institutlar, mahalla tizimi, konstitutsiyaviy prinsiplar va raqamli monitoring imkoniyatlariga tayangan holda shakllanadi.

Bunda asosiy ilmiy xulosa sifatida selektiv-integratsiyaviy yondashuvda ilgari surilgan: xorijiy modellarni mexanik ko‘chirish emas, balki milliy huquqiy asoslar, mahalla instituti, demografik tarkib, budjet imkoniyatlari, raqamli infratuzilma va davlat boshqaruvi madaniyatini hisobga olgan holda mos elementlarni tanlash zarur. Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy siyosat yordamning hajmini oshirish bilangina cheklanmay, boshqaruv sifatini o‘zgartirishga yo‘naltirilgan. “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” integratsiyasi ehtiyojni ko‘rish, ma’lumotlarni tizimlashtirish va qaror qabul qilishda takrorlanish hamda subyektivlikni kamaytirishga qaratilganligi muhimligi bilan ajralib turadi [9:14-15]. Biroq bunday raqamlashtirish faqat texnik bazaga ega bo‘lish bilan emas, ma’lumotlarning to‘g‘riligi, shaxsiy ma’lumotlar himoyasi, fuqaroga tushunarli tartiblar, murojaat va shikoyat mexanizmlari bilan birgalikda samarali ahamiyat kasb etishi mumkin bo‘ladi. Bunday tizim ijtimoiy davlat

prinsipining strategik talqinini beradi: ya’ni davlat faqat minimal ijtimoiy yordamni emas, xalqaro standartlarga mos xizmat, qamrov va sifatni ta’minlashga intiladi. Shu sababli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi ijtimoiy davlatni uzoq muddatli modernizatsiya loyihasi sifatida ko‘rish imkonini beradi.

Asosiysi, ijtimoiy siyosat samaradorligi faqat markaziy qarorlar bilan emas, balki joylardagi ijro sifati, idoralararo ma’lumot almashinuvi, mahalla va professional xizmatlar uyg‘unligi, jamoatchilik nazorati hamda fuqarolarning real qoniqish darajasi bilan ham belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–22-son Farmoniga muvofiq “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida aholining talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish asosiy g‘oyalardan biri sifatida belgilangan [10:1-3]. Mazkur strategiyada professional ijtimoiy xizmatlar tizimini tubdan takomillashtirish, ijtimoiy himoya tizimi bilan muhtojlarning barchasini qamrab olish, barcha tuman va shaharlarda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari faoliyatini takomillashtirish vazifalari ko‘rsatilgan. Bu esa ijtimoiy siyosatning yangi bosqichida manzillilik, professionallashuv, raqamli monitoring va xizmatlarni joylarda integratsiyalash masalalarini ilmiy asoslashni talab qiladi. Shuningdek, mahallalarda 10 mingdan ziyod ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish loyihalarini ishga tushirish orqali 100 mingta yangi ish o‘rnini yaratish hamda kambag‘allik va ishsizlikdan xoli mahallalar sonini 3,5 mingtaga yetkazish, jamiyat asosini tashkil etuvchi jami mahallalardagi muammolarni bir vaqtning o‘zida hal etishda barcha davlat organlariga mas’uliyatni yuklab, ijroni 24/7 rejimda onlayn nazorat qilish amaliyotini yo‘lga qo‘yish orqali mahallalar infratuzilmasini takomillashtirish va ularga Yangi O‘zbekiston qiyofasini olib kirish belgilangan. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad barqaror davlat va jamiyat infratuzilmasini vujudga keltirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. 36-modda. https://lex.uz/docs/6445145 (Murojaat qilingan sana: 2025.05.24).

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023. 1-, 14-, 36-, 69-, 115- va 127-moddalar. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/6445145 (murojaat qilingan sana: 2025.05.24).

3. Easton D. A Systems Analysis of Political Life. New York: Wiley, 1965. – P. 17–38;

4. Rhodes R.A. W Understanding Governance: Policy Networks, Governance, Reflexivity and Accountability. Buckingham: Open University Press, 1997. – P. 15–23.

5. Lex.uz/en/docs/82949 (Murojaat qilingan sana: 2026.06.23).

6. https//share.google/aimode/rmqvJIHQxbFLcf.Ju1(Murojaat qilingan sana: 2026.06.23).

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. Muqaddima va 1-band. https://lex.uz/docs/5841063 (Murojaat qilingan sana: 2026.06.23).

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2-band, “a” kichik bandi. https://lex.uz/docs/5841063 (Murojaat qilingan sana: 2026.06.23).

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. 2-band, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”, “Temir daftar”, “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftari” integratsiyasiga oid normalar. https://lex.uz/docs/5841063 (Murojaat qilingan sana: 2026.06.23).

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevralda (PF–22-son)gi “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risidagi Farmoni // lex.uz/docs/8050787 (Murojaat qilingan sana: 2026.10.03).